

Journal of Social Research in Uzbekistan

**THE DEVELOPMENT OF THE STATE POWER SYSTEM IN THE PROCESS OF
ADMINISTRATIVE REFORMS IN UZBEKISTAN**

Elyorbek Otajonov

Doctoral Candidate (PhD student)

Institute for the Study of Youth Issues and Training of Promising Personnel

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Public administration, administrative reforms, Action Strategy, Development Strategy, governance, authority, investment.

Received: 23.09.25

Accepted: 25.09.25

Published: 27.09.25

Abstract: This article analyzes the strategic essence, institutional foundations, and practical outcomes of the administrative reforms implemented in Uzbekistan between 2016 and 2024. The study thoroughly explores the role of the Action Strategy (2017–2021) and its logical continuation, the Development Strategy (2022–2026), in the modernization of public administration. Key reform directions — such as redistribution of powers between central and local authorities, digitalization of public services, strengthening the rule of law, enhancing public participation, and ensuring gender equality — are systematically reviewed through specific policy measures. The effectiveness of the reforms is substantiated by improvements in international rankings, the development of parliamentary oversight institutions, citizen appeals to state bodies, and positive shifts in socio-economic indicators. Furthermore, the paper outlines promising directions for combating corruption and strengthening transparency and accountability.

**O‘ZBEKISTONDA MA’MURIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA DAVLAT HOKIMIYATI
TIZIMINING RIVOJLANISHI**

Elyorbek Otajonov

Tayanch doktoranti

Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Davlat boshqaruvi, **Annotatsiya:** Ushbu maqolada 2016-2024-ma’muriy islohotlar, Harakatlar strategiyasi, yillar oralig‘ida O‘zbekistonda amalga oshirilgan

Taraqqiyot strategiyasi, boshqaruv, hokimiyat, investitsiya.

ma'muriy islohotlarning strategik mazmuni, institutsional asoslari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Harakatlar strategiyasi (2017-2021) va uning mantiqiy davomi sifatidagi Taraqqiyot strategiyasi (2022-2026)ning davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishdagi o'rni chuqur yoritiladi. Islohotlarning markaziy yo'nalishlari - markaziy va mahalliy hokimiyat vakolatlarini qayta taqsimlash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish hamda gender tenglikni ta'minlash - bo'yicha amalga oshirilgan aniq chora-tadbirlarni tizimli tahlil etiladi. Xalqaro reytinglar, parlament nazorati institutlari, fuqarolarning davlat organlariga murojaatlari dinamikasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ijobiy o'zgarishlar orqali islohotlarning samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash, ochiqlik va hisobdorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilab beriladi.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ В ПРОЦЕССЕ АДМИНИСТРАТИВНЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Эльёрбек Отажонов

Аспирант

Институт изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Государственное управление, административные реформы, Стратегия действий, Стратегия развития, управление, власть, инвестиции.

Аннотация: В данной статье проводится анализ стратегического содержания, институциональных основ и практических результатов административных реформ, реализованных в Узбекистане в период с 2016 по 2024 годы. В исследовании подробно раскрывается значение Стратегии действий (2017–2021) и её логического продолжения — Стратегии развития (2022–2026) — в процессе модернизации государственного управления. Системно рассматриваются ключевые направления реформ: перераспределение полномочий между центральной и местной властью, цифровизация государственных услуг, укрепление верховенства закона, расширение участия гражданского общества и обеспечение гендерного равенства. Эффективность реформ обосновывается на основе международных рейтингов, развития институтов парламентского контроля, динамики обращений граждан в

государственные органы и позитивных изменений в социально-экономических показателях. Также обозначены перспективные направления в сфере борьбы с коррупцией, повышения открытости и подотчетности.

Kirish. O'zbekistonda ma'muriy islohotlar jarayoni 2016-yildan boshlab yangi rahbariyat davrida jadal faollashdi. Asosiy yo'nalish - davlat hokimiyati tizimini modernizatsiya qilish, uni xalq bilan bevosita muloqot qiluvchi, tezkor va hisobdor organga aylantirish bo'ldi. Ushbu jarayonning strategik maqsadi - avvalgi markazlashgan boshqaruv modelidan bosqichma-bosqich fuqaroga yaqin, hisobdor va shaffof boshqaruv tizimiga o'tishdir. Bu yo'nalishda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi nafaqat siyosiy, balki institutsional transformatsiya sifatida ham qaralmoqda. Shavkat Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Davlat organlari endi xalq uchun ishlashi kerak, xalq davlat organlariga emas" degan g'oyani ilgari surib, mamlakatdagi islohotlarning mafkuraviy poydevorini belgilab berdi.[1] 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakat modernizatsiya jarayonining konseptual yo'l xaritasi bo'lib xizmat qildi. Ushbu strategiya doirasida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashni kuchaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarini va ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda liberallashtirish, xavfsizlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat olib borish davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishning markaziy maqsadlari sifatida belgilandi.[2] Shu bois strategiyada belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy sharti - amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarining to'liq va samarali ijrosini ta'minlay oladigan, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini o'z vaqtida aniqlab, ularni hal eta oladigan barqaror va funksional davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishdir.

Asosiy qism. O'zbekiston hukumatidagi so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasida vakolatlarni qayta taqsimlashga yo'naltirilgan bo'lib, xalq manfaatlariga xizmat qildi. Bu davr davomida ma'muriy islohotlarning normativ-huquqiy asoslari yaratildi. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi va bu strategiyaning uzviy davomi hisoblangan Taraqqiyot strategiyasi (2022-2026) asosida keng qamrovli islohotlar mahalliy boshqaruvni markaziy boshqaruv modelidan fuqaroga yaqinroq, hisobdor va shaffof boshqaruvga o'tkazish maqsadini ko'zladi. Ushbu o'zgarishlar, avvalo, markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasida vakolatlarning qayta taqsimlanishi, mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini oshirish hamda ularning fuqarolar oldidagi hisobdorligini kuchaytirishga qaratildi. Mazkur islohotlarning normativ-huquqiy bazasi sifatida 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asos qilib olindi. Strategiya davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, iqtisodiy liberallashtirish, ijtimoiy soha modernizatsiyasi va ochiq tashqi siyosat kabi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni qamrab oldi. Ushbu hujjat o'z mohiyatiga ko'ra mamlakat modernizatsiyasining konseptual asosini belgilab, mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari, funksiyalari va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish uchun zarur me'yoriy zamin yaratdi. Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishladi.[3]


Bu islohotlar mahalliy hokimiyat organlariga qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytirish, fuqaroga yaqinroq xizmat ko'rsatishni jadallashtirishda muhim omil bo'ldi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatda izchil bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Har bir bosqich yillarga berilgan nomlar va ular doirasida ishlab chiqilgan Davlat dasturlari asosida hayotga tatbiq etilib, strategiyaning amaliy natijadorligini ta'minladi. Ushbu yillik dasturlar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida tizimli islohotlarni amalga oshirish, aholi farovonligini oshirish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratildi. Shu davrda parlament nazorati instituti sifatida «hukumat soati» mexanizmining joriy etilishi O'zbekiston siyosiy tizimida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamladi.

2018-2021-yillar oralig'ida 30 marotaba o'tkazilgan ushbu tadbirlarda hukumatning 41 nafar a'zosi deputatlar savollariga javob berdi. Muhim jihati shundaki, 2021-yildan boshlab «hukumat soati» majlislari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy «Youtube» va «Facebook» sahifalarida jonli efirda yoritila boshlandi. Bu jarayon, G'arb parlament amaliyotida qo'llaniladigan ochiq eshituvlar tajribasiga yaqin bo'lib, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatini kengaytirdi. 2017-yildan boshlab Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilishi, aholining davlat organlariga murojaat qilish imkoniyatlarini tubdan kengaytirdi. 2017-2021-yillar mobaynida mazkur tuzilmalarga 5 million 780 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan bo'lib, ularning 3 million 288 mingdan ortig'i qanoatlantirildi. Murojaatlarni ko'rib chiqish samaradorligi yil sayin oshdi: agar 2017-yilda murojaatlarni qanoatlantirish darajasi 47,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 53,9 %, 2019-yilda 60,9 %, 2020-yilda 60,4 % bo'ldi, 2021-yilda esa rekord darajada - 86,7 %ga yetdi. Bu holat davlat boshqaruvida «ijtimoiy eshitish» tamoyilining faol joriy etilganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, 2018-2021-yillarda gender tenglikni ta'minlash va

xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Mazkur davrda ushbu yo‘nalishda 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori hamda Hukumatning 16 ta qarori qabul qilindi. Shuningdek, Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi komissiyasi tashkil etildi. Natijada ayol senatorlar soni qariyb 30 %, deputat ayollar soni esa 50 %ga oshdi. Bu jarayon BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, 5-maqsad “Gender tengligini ta‘minlash” bilan hamohangdir.[4]

Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo‘nalishida o‘tgan 5 yil davomida asosiy iqtisodiy islohotlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, inflyatsiya darajasi, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, biznesga qulay muhit yaratish, infratuzilmani takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy integratsiya, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi islohotlar jadal sur‘atlarda olib borildi.



Grafikda 2017-2021 yillar davomida mamlakat YaIM o‘shish sur‘atlari foizlarda ifodalangan. 2020-yilda pandemiya ta‘siri natijasida o‘shish sur‘ati pasaygan bo‘lsa, 2021-yilda iqtisodiy faollik qayta tiklanishi natijasida yuqori o‘shish qayd etilgan. Umuman olganda, Harakatlar strategiyasining 2017-2021-yillar oralig‘idagi amalga oshirilishi mamlakatda parlament nazorati, ochiqlik, jamoatchilik ishtiroki va gender tengligi sohalarida tub burilish yasadi. Bu islohotlar nafaqat boshqaruv tizimini zamonaviylashtirdi, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomani mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutdi. Shu jihatdan, mazkur tajriba xalqaro ekspertlar tomonidan Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvining ilg‘or modeli sifatida e‘tirof etilmoqda.

Jo‘rayev R. va Isabayev M. ta‘kidlaganidek, Harakatlar strategiyasi 2017-2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishini qamrab olib, “har bir yo‘nalish doirasida yillik Davlat dasturlari ishlab chiqilib, izchil amalga oshirildi. Strategiya davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda xavfsizlik va tashqi siyosatni mustahkamlashga qaratilgan.[5] 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi esa Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida qabul qilinib, boshqaruv tizimini yanada samarali qilishga yo‘naltirilgan. Xususan, u hududiy

boshqaruvni kuchaytirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, "ochiq ma'lumotlar" tamoyilini keng tatbiq etish, korrupsiyaga qarshi kurashni institutsional darajada mustahkamlash hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni maqsad qildi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish bo'yicha so'nggi yillarda erishilgan tizimli yutuqlarning mantiqiy davomi hamda huquqiy poydevori sifatida shakllandi. Mazkur strategiya o'z ildizlarini 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasidan oladi. Chunki aynan Harakatlar strategiyasini tatbiq etish jarayonida jamlangan boy amaliy tajriba, samarali boshqaruv uslublari va xalqaro andozalarga mos yechimlar Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyatini belgilab berdi. Taraqqiyot strategiyasi loyihasining ishlab chiqilishida xalqchil boshqaruv tamoyillarining amalda qo'llanishi alohida e'tiborga loyiqdir. Loyihaning yakuniy shaklini tayyorlashdan avval u keng qamrovli jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Muhokamalar jarayonida aholining turli qatlamlaridan 17,5 mingdan ortiq taklif va mulohazalar kelib tushdi. Ushbu fikrlar tizimli ravishda tahlil qilinib, loyihaga 100 ga yaqin kontseptual va 200 dan ortiq aniq xarakterga ega o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritildi. Bu jarayon davlat boshqaruvi tizimida normativ-huquqiy hujjatlar yaratilishida jamoatchilik ishtirokining yuqori darajada ta'minlanganini ko'rsatadi. Taraqqiyot strategiyasida 2022-2026 yillarda mamlakatimizga 120 mlrd dollar, jumladan, 70 mlrd dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadi qo'yilgan edi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida 2022-yilning 9 oyida 3 mlrd dollarlik 72 ta yirik va ahamiyatli loyihalar ishga tushirildi. [6] Ta'lim sohasidagi islohotlarda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar doirasida 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish rejalashtirilgan va bu jarayon bugungi kunga kelib bosqichma-bosqich boshlangan. 2022-2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasi 90 % ga yetkazildi. 2025/2026 o'quv yiliga kelib bu ko'rsatkich 100 % ga yetkazilish rejalashtirilgan. 2023-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasida umumxalq referendumini o'tkazilib, Konstitutsiyaga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu siyosiy-huquqiy jarayon 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri - "Adolat va qonun ustuvorligini taraqqiyotning asosiy sharti sifatida belgilash" maqsadini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qildi. Referendum mamlakat tarixida demokratik islohotlarning yangi bosqichi sifatida baholandi, chunki unda konstitutsiyaviy normalar faqat davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish bilan cheklanmay, balki fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini mustahkamlash, inson qadrini yuksaltirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini chuqurlashtirishga qaratildi. Bu haqda Konstitutsiyaviy komissiya raisi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati, akademik Akmal Saidov quyidagicha fikrlarni bildirib o'tdi: Yangi O'zbekiston hayotining turli sohalarida izchil davom etayotgan keng ko'lamli, qamrovdor va shiddatli islohotlar natijalarini mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston

Prezidenti e'tirof etganidek, "Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo'llarini keng ochib berdi".[7]

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov ta'kidlaganidek, "Inson - jamiyat - davlat" tamoyili asosida shakllantirilgan va "Inson qadri uchun", "Davlat - inson uchun" degan konseptual g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishni ko'zda tutuvchi Taraqqiyot strategiyasi - mamlakatning yaqin va o'rta istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini aniq belgilab bergan kompleks dasturiy hujjatdir. Mazkur strategiyada belgilangan maqsadlar O'zbekistonni modernizatsiya qilish, ijtimoiy adolat va farovonlikni ta'minlash, davlat boshqaruvini fuqaroga yaqinlashtirish, shuningdek, global va mintaqaviy o'zgarishlarga moslashuvchan javob berish imkonini yaratadi. Hujjatning tuzilmasi aniq rejalashtirilgan bo'lib, unda 7 ta ustuvor yo'nalish doirasida 100 ta strategik maqsad va 398 ta amaliy vazifani keyingi besh yilda amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu yondashuv nafaqat davlat siyosatining izchilligi va rejalashtirish sifatini ta'minlaydi, balki xalqaro standartlarga mos strategik boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qiladi. [8]

Ta'kidlash joizki, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi nafaqat mamlakatimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotini shu bilan birga, uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanib, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishida, mamlakatimizni modernizatsiya qilishda va hayotning barcha sohalarini liberallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. 2016-2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda amalga oshirilgan keng qamrovli ma'muriy islohotlar davlat boshqaruvi tizimida tub sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirdi. Ushbu davrda qabul qilingan yangi qonunlar, Prezident farmon va qarorlari davlat boshqaruvi mexanizmlarini zamonaviylashtirish, boshqaruv funksiyalarini markazdan hududlarga bosqichma-bosqich o'tkazish, mahalliy hokimiyatning mas'uliyatini oshirishga qaratildi. Mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari qayta ko'rib chiqilib, ularning hududiy rivojlanish strategiyalarini mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirildi. Islohotlar doirasida davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayoni keng miqyosda raqamlashtirildi. Xususan, "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirildi, onlayn platformalar orqali 300 dan ortiq interaktiv xizmatlar joriy etildi, natijada byurokratik to'siqlar kamaydi, vaqt va resurslar tejaldi. Masalan, 2016-2023-yillar oralig'ida O'zbekiston BMTning elektron hukumat indeksida 40 pog'onaga ko'tarildi, bu esa islohotlarning xalqaro miqyosda ham tan olinayotganidan dalolat beradi.

Biroq, mavjud yutuqlarga qaramay, islohotlarning samaradorligini to'liq oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Avvalo, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha institutsional mexanizmlarni kuchaytirish va profilaktik choralarni tizimli ravishda amalga oshirish talab etiladi. Shuningdek, boshqaruvning ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini yanada oshirish, davlat organlari

faoliyatida fuqarolar bilan ikki tomonlama muloqotni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada “ochiq ma’lumotlar” portallarini yanada kengaytirish, jamoatchilik muhokamalarini qonunchilik jarayonining majburiy bosqichi sifatida mustahkamlash, davlat xizmatlari sifatini baholashda aholining bevosita fikrini inobatga olish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, 2016-2024-yillarda boshlangan ma’muriy islohotlar O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, fuqaroga yo‘naltirilgan modelini shakllantirish yo‘lida muhim poydevor yaratdi. Kelgusida ochiqlik, korrupsiyaga qarshi kurash va samaradorlik tamoyillarini izchil mustahkamlash orqali ushbu islohotlarning natijalari yanada barqaror va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M., Yangi O‘zbekiston strategiyasi, Toshkent, 2021, b-57
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. 2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2020. <https://lex.uz/ru/docs/-3114480>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. 2017. <https://lex.uz/docs/-3107036>
4. Harakatlar strategiyasi bilan besh yil: islohotlar sarhisobi. <https://old.gov.uz/oz/news/view/33509>
5. Jo‘rayev R.T., Isabayev M.B. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. Namangan: “Iste’dod ziyo press” nashriyoti, 2022. b-44
6. Taraqqiyot strategiyasining ilk yil natijalari. <https://review.uz/uz/post/taraqqiyot-strategiyasining-ilk-yil-natijalari>
7. Saidov. A. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi - haqiqiy xalq Konstitutsiyasidir. 2025. <https://parliament.gov.uz/news/yangi-tahrirdagi-ozbekiston-konstitutsiyasi-haqiqiy-xalq-konstitutsiyasidir>
8. Ismoilov N. Taraqqiyot strategiyasi - keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosi. 2023. <https://parliament.gov.uz/articles/276>